Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati .....	1920
<i>Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna</i>	
Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash .....	1924
<i>Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari .....	1930
<i>Umarova Nafisa Ahmatillovna</i>	
11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari .....	1934
<i>Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura</i>	
Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish.....	1937
<i>Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich</i>	



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование .....	1940
<i>Урумбаева Айгуль Нагметовна</i>	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
<i>Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li</i>	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка .....	1947
<i>Адилова Солияхон</i>	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar .....	1954
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi</i>	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues .....	1958
<i>Yusupova Nargiza Abdulxafizovna</i>	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
<i>Бекмуратова Умида Аманбаевна</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
<i>Namozova Nargiza Husniddin qizi</i>	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
<i>Rakhmonova Diyora Utkir's daughter</i>	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
<i>Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich</i>	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari.....	1984
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
<i>Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari .....	1993
<i>Usmanova Sevara Akmalovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
<i>Istamova Dilnoza Norboyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish .....	2012
<i>Turaxujayeva Madina Norpulatovna</i>	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni.....	2015
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri .....	2019
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa .....	2023
<i>Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich</i>	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun .....	2028
<i>Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich</i>	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....	2032
<i>Almardanova Salomat Bobonazarovna</i>	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati .....	2035
<i>Ashirov Abdurashid Ravshanovich</i>	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihagini amalga oshirishning o'ziga xosligi .....	2040
<i>Azimova Odinaxon Abduqodir qizi</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari .....	2049
<i>Kurbanov Baxrom</i>	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari .....	2053
<i>Madaminova Nilufar Madrasulovna</i>	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari .....	2056
<i>Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich</i>	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash .....	2059
<i>Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
<i>Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
<i>Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich</i>	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari .....	2072
<i>Mo'minova Dilnavoz Komilovna</i>	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
<i>Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna</i>	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
<i>Odina Otajonova</i>	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari .....	2084
<i>Oromiddinov Sardorbek Botirovich</i>	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari .....	2089
<i>Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
<i>Qodirova Feruza Usmanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
<i>Sobirova Bonu Matkarimovna</i>	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati .....	2099
<i>Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
<i>Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi .....	2105
<i>Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish .....	2109
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
<i>Y. T. Umarova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar .....	2118
<i>Yakubova Manzura Abduraxmonovna</i>	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish .....	2121
<i>Yaxyayeva Umida Sharifovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli .....	2125
<i>Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi</i>	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati .....	2130
<i>Sodiqov Murod Naimovich</i>	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi .....	2134
<b>Tashpulatov Farxad Alisherovich</b>	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
<b>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</b>	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
<b>Negmatova Sanobar Qarshiboyevna</b>	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish .....	2149
<b>Mamatramov Anvar Chorshanbiyevich</b>	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli .....	2155
<b>Nishonov Dilshod Shamsidinovich</b>	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi .....	2162
<b>Djurakulova Adolat Xolmuratovna</b>	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language .....	2165
<b>Babayeva Komila Rishatovna</b>	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
<b>Buharbayev Muxtar Yusupovich</b>	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar .....	2172
<b>Do’schanova Nafosat Norimonovna</b>	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikirlashni rivojlantirish texnologiyalari .....	2176
<b>Fayzullayeva Feruza Raxmatovna</b>	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari .....	2179
<b>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</b>	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat .....	2183
<b>Jumanazarova Guljahon</b>	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
<b>Kimsanboyeva Ruksoraxon Ziyodbek qizi</b>	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari .....	2190
<b>Norjon Jamilova Abduxoliq qizi</b>	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
<b>Shamsiyeva M. R.</b>	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari .....	2196
<b>Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi</b>	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки .....	2200
<b>Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)</b>	
Цифровизация в дошкольном образовании: механизмы управления для повышения качества .....	2204
<b>Иногамова Д. О.</b>	
Bolalar serebral falajida bolalarning pedagogik, tibbiy va ijtimoiy rehabilitatsiya kompleksida – logopedik korreksiya.....	2210
<b>Xusniddinova Barno Xodjiakbarovna</b>	
Maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadlari va chora-tadbirlari .....	2214
<b>Ma’rifat Abdullayeva</b>	
Tarbiyasi qiyin o’smirlar bilan ishlashda xatti-harakatlarning buzilishi va xarakter nuqsonlarining oldini olish hamda tuzatishning ilmiy asoslari.....	2218
<b>Mamayusupova Iroda Xamidovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqni tekislashda multimodal ta’lim texnologiyalarining o’rni .....	2224
<b>Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna</b>	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida eko-art loyihalari .....	2229
<b>Mamatova Xusnora Eshquvatovna</b>	
Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста .....	2232
<b>Матчанова Камила Фарход кизи</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.....	2237
<b>Nazarova Asila Mamarasulovna</b>	
The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
<b>Rustamova Khurshida Yusupovna</b>	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
<b>Xusayinova Go'zal Abdurasulovna</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
<b>Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna</b>	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish .....	2252
<b>Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi</b>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish .....	2255
<b>Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi</b>	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
<b>Axmedova Dilnora Kobiljonovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari .....	2262
<b>Ismoilov Temurbek Islomovich</b>	



# AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIKA FANINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNINI

Xusayinova Go'zal Abdurasulovna

NamDPI Intellektual fanlar va axborot texnologiyalari  
 kafedrasida katta o'qituvchisi p.f.f.d (PhD)



ORCID: 0009-0003-3845-0322

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'рни ilmiy jihatdan yoritilgan. Mashg'ulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, dars jarayonida zamonaviy texnik vositalar, kompyuterlar hamda videokompyuterli multimediyaga komplekslaridan samarali foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Pedagogik texnologiya tushunchasining ilmiy maqolalar, davriy nashrlar va ilmiy anjumanlardagi ma'ruza hamda hisobotlarda keng yoritilayotgani, shuningdek, ushbu yo'nalishda faoliyat olib borayotgan olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilingan. Maqolada pedagogika fanini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning rolini oshirishga qaratilgan xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogika fani, akmeologiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim tamoyillari, metodik ishlanmalar.

**Abstract:** This article scientifically examines the role of modern pedagogical technologies in the development of pedagogical science based on the acmeological approach. The necessity of organizing educational activities through pedagogical technologies and the effective use of modern technical tools, computers, and video-computer multimedia complexes in the teaching process is substantiated. The concept of pedagogical technology as reflected in scientific articles, periodicals, and conference reports is analyzed, along with the research works of scholars engaged in this field. The study also proposes conclusions and practical recommendations aimed at enhancing the role of modern pedagogical technologies in the advancement of pedagogical science.

**Key words:** pedagogical science, acmeology, modern pedagogical technologies, principles of education, methodological developments.

**Аннотация:** В статье научно обоснована роль современных педагогических технологий в развитии педагогической науки на основе акмеологического подхода. Обоснована необходимость организации учебных занятий на основе педагогических технологий, а также эффективного использования в образовательном процессе современных технических средств, компьютеров и видеокomпьютерных мультимедийных комплексов. Проанализировано отражение понятия педагогической технологии в научных статьях, периодических изданиях и материалах научных конференций, а также рассмотрены научные труды ученых, занимающихся данной проблематикой. В работе разработаны выводы и практические предложения, направленные на повышение роли современных педагогических технологий в развитии педагогической науки.

**Ключевые слова:** педагогическая наука, акмеология, современные педагогические технологии, принципы обучения, методические разработки.

## KIRISH

Ma'lumki, har qanday texnologiya ta'limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalashga, unda mehnat hamda muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonining faol subyektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflagan holda nazariy hamda amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini yaratadi.

O'qituvchining faol va samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar ta'lim oluvchilarga qaratiladi. Shuningdek, ularning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishga qulay sharoit yaratish bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayonida butun mashg'ulot davomida o'quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko'zda tutadi.

O'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talablarini o'quv yoki ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, yetarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natijani ko'zlamagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin. Pedagogik faoliyatda "akme" deganda ma'lum bir sohadagi mutaxassis faoliyatining mazmunini tashkil etuvchi muammolarni hal etishning izchil, muvaffaqiyatli va yuqori darajasi tushuniladi. "Akme"ga erishish inson hayotidagi ko'plab obyektiv va subyektiv sharoit hamda holatlarning o'zaro ta'siri natijasidir.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qitishni takomillashtirish, ya'ni o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etish, kompyuterli avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlarini qo'llash, ta'limda yangi texnikaviy va didaktik vositalar hamda multi-mediya imkoniyatlaridan foydalanish, masofaviy ta'limni joriy etish kabi o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda yangi pedagogik texnologiyalar asta-sekin shakllanib, O'zbekiston Respublikasiga ham kirib kela boshlagan. Yangi pedagogik texnologiyalar dars jarayonida talabalarni mustaqil fikrlashga, erkin faoliyat yuritishga da'vat etadi. So'nggi yillarda Respublikamizning taniqli pedagog olimlari va o'qituvchilari tomonidan o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha samarali izlanishlar olib borilmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasi ilmiy maqolalar, davriy nashrlar hamda ilmiy anjumanlardagi mavzular va hisobotlarda ham o'z aksini topmoqda.

Akmeologiya – cho'qqilarga erishish haqidagi fan. Akmeologiya kamolot yoki balog'at psixologiyasini ifodalovchi tushuncha sifatida N.A. Ribnikov tomonidan kiritilgan bo'lib, ushbu fan yo'nalishining yanada rivojlanishi A.A. Bodalev asarlari bilan bog'liq. B.G. Ananev, A.A. Bodalev, A.A. Derkach, N.V. Kuzmin akmeologiyani kattalar rivojlanishini har tomonlama o'rganadigan fan sifatida talqin etganlar. Jumladan, respublikamiz olimlari R.X. Jorayev, A.P. Parpiev, N.X. Saydahmedov, U.N. Nishonaliev, L. Farberman, L.V. Golish, U.X. Tolipovlar hamda Rossiya pedagog olimlaridan V.P. Bepalko, M.V. Klarin, V.M. Monaxov, P.I. Pidkasistiylar, shuningdek, Qozog'istonlik olimlardan M.J. Aristanov, J.S. Xaydarov va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida "pedagogik texnologiya" tushunchasining mohiyati va ahamiyatini ochib berishga harakat qilganlar <sup>[1]</sup>.

Hozirgi kunda pedagogika adabiyotlari, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar va rasmiy hujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya", "ilg'or pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya", "o'qitish texnologiyasi", "ta'lim texnologiyasi" kabi iboralar keng qo'llanilmoqda. Biroq ushbu tushunchalar hali yagona qolipga solinmagan va entsiklopediyalarda ham to'liq izohlanmagan. Bu iboralar mazmunining yagona talqini ishlab chiqilmaganligi sababli ularning bir-biridan farqlanuvchi ko'plab ta'riflari mavjud.

V. Guzevning ta'kidlashicha, an'anaviy uslubda ta'lim maqsadlari dastur talablariga muvofiq holda noaniq, ya'ni ta'lim oluvchilarning "o'zlashtirish" tushunchasi qobig'iga o'ralgan mavhum tasavvur bilan tavsiflanadi. Ko'proq yutuqlarga erishgan o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish asosida ta'lim jarayonlari tashkil etiladi va har bir aniq vaziyatda ana shu o'qituvchilarning pedagogik faoliyati namuna sifatida ko'rsatiladi. Ammo bir qator olimlar ta'limning alohida uslubiyotlari davri o'tganligini hamda har qanday ilg'or pedagoglar tajribalarini umumlashtirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan, samarali ta'limni qurish imkonini bermasligini ta'kidlaydilar. Hozirgi kunda ko'plab mutaxassislar an'anaviy pedagogikani tanqid qilgan holda, o'qitishda hanuzgacha umumiy tushunchalar, qoida va qonuniyatlarni o'rganishga asoslangan yondashuv ustuvor ekanligini qayd etmoqdalar. O'quvchilarning real dunyo obyektlari bilan ishlashi esa hajm va mazmun jihatidan yetarli darajada emas.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rnini aniqlash maqsadida sifat va miqdoriy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogika sohasiga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali olindi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar o'rtasida so'rovnoma va yarim tuzilgan suhbatlar o'tkazildi, dars jarayonlari bevosita kuzatildi hamda ilg'or pedagogik tajribalar o'rganildi. Olingan empirik ma'lumotlar taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish usullari asosida tahlil qilindi. Natijalarni qayta ishlash jarayonida akmeologik rivojlanish ko'rsatkichlari, innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri aniqlanib, mantiqiy xulosalar chiqarildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Interfaol pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning afzalligi shundaki, bunday darslar tizimi tafakkurni charxlaydigan, Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqatni, fuqarolik axloqi hamda demokratik madaniyatni shakllantiruvchi fan asosi bo'lib xizmat qiladi.



Fanlarni o'qitishda "Guruhlar bilan ishlash", "Munozara", "Muammoli o'qitish", "Aqliy hujum" kabi metodlar, shuningdek, jadvallar bilan ishlash, mustaqil fikrni ifodalovchi yozma ishlar va insholar yozish o'quvchilar faolligini oshiradi. Ushbu metodlar asosida olib borilgan darslar vaqt tejamkorligi bilan birga yangi bilimlarni o'quvchilarga yetkazadi, shu bilan birga o'quvchini chuqur mushohada yuritishga undaydigan, muammoli vaziyatlarda bahs-tortishuvlar orqali to'g'ri xulosa chiqarishga va o'z fikrini asoslay olishga o'rgatadigan sharoitni yaratadi. O'quvchi olgan bilimlarini boshqa mavzular bilan bog'lab, umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish – innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo'lgan. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u yangilik kiritish jarayoni ishtirokchilarining toifa (tip)larini, ularning yangilikka bo'lgan munosabatini hamda uni idrok etishga tayyorlik darajasini tadqiq etgan.

Pedagogik texnologiya – ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi. "Texnologiya" so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu so'z yunon tilidan olingan bo'lib, "tehnos" – mahorat, san'at, "logos" – ta'limot, fan ma'nolarini anglatadi <sup>[2]</sup>. Bundan kelib chiqadiki, texnologiya tushunchasi muayyan sohani rivojlantirish va undagi mahoratni oshirish vazifalarini bajaradi.

Umuman olganda, texnologiya sifat jihatidan yangi masalalarni hal etish uchun ta'lim evolyutsiyasining muayyan bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayondir. Yangi texnologiyalar ta'lim jarayonida keng imkoniyatlarni ochib berdi. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy tushuntirishga asoslangan "o'rgatish" jarayonlari o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqariga chiqa boshladi. Yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko'rgazmali vositalar o'ziga xos metodikalar bilan uyg'unlashib, ta'lim jarayoniga ko'plab yangiliklarni kiritib, uning ajralmas qismiga aylandi.

Biroq pedagogik texnologik jarayonning o'ziga xosligi, uning an'anaviy shakllardan ustuvorligi hamda zamonaviy ta'lim muammolarini real hal etish usullari hali to'liq o'rganilmagan. Bu masala yuzasidan xorijiy va o'zbek olimlari ko'plab tadqiqotlar olib borgan bo'lsalar-da, ularning barchasi pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor o'ringa ega bo'lishiga ishonch bildiradilar. Hozirgi kunda ta'lim texnologiyasi yordamchi vosita bo'lib qolmasdan, balki o'quv jarayonining rivojlanishida muhim rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari va mazmunini o'zgartiruvchi yangi tizim sifatida qaralmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Texnologiyani bunday talqin qilish ta'lim jarayonidagi barcha tarkibiy qismlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, pedagog va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikning muhimligini ko'rsatadi. O'quvchi passiv ta'lim obyektidan faol shaxs – ta'lim va tarbiya subyektiga aylanadi hamda mustaqil bilim olishga intiladi.

Innovatsion usullarda darslarni tashkil etish, ya'ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim bosqichidan joriy etish ta'lim tizimida yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Chunki boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning poydevori hisoblanadi. Ushbu poydevorni mustahkam yaratish keyingi bosqichlardagi ta'lim jarayonlarining samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, boshlang'ich ta'limdan boshlab joriy etilgan pedagogik texnologiyalar ta'limning keyingi bosqichlarida ham muhim tayanch vazifasini bajaradi <sup>[3]</sup>.

Talabalarning bilishga bo'lgan qiziqishi shakllanishining muhim shartlaridan biri hissiy vaziyatni yaratish, bilishga bo'lgan ehtiyoj va ongli fikrlashni rivojlantirishdir. Talabalarning bilish faoliyati tuzilmasiga faollik kiradi, ya'ni bu jarayonda intellektual, irodaviy va hissiy omillar birgalikda namoyon bo'ladi. Bilishga bo'lgan chuqur qiziqish, maqsad sari intilish, diqqatni jamlay olish hamda aqliy va jismoniy kuchlarni safarbar etish bilish faolligining muhim belgilaridir. Bilish faolligi individual xususiyatga ega bo'lib, u shaxsning tug'ma qobiliyati emas, balki faoliyat jarayonida shakllanadi.

Bilish faolligi jarayonida quyidagi to'rt sath ajratiladi:

- **reproduktiv faollik** – tayyor bilimlarni egallashga tayyorlik;
- **aplikativ faollik** – tanlash va yaratishga yo'naltirilgan faoliyat;
- **izohlovchi faollik** – mazmunni izohlash va tushuntirishga intilish;
- **produktiv (samarali) faollik** – yangilik yaratishga bo'lgan ijodiy tayyorlik.

Bilish faolligi rivojlanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi: amaliy faoliyatdagi mustaqil xatti-harakatlar, hodisalar mohiyatini anglashga intilish hamda ijodiy faollikning oliy bosqichiga erishish <sup>[4]</sup>.

Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qitishda bilish faoliyatini jonlantirish deganda fikrlash faoliyatining faolligi tushuniladi. Ushbu faollik o'quv materialini tahlil qilish va umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullarini qo'llash, bilimlar tizimini egallash, dunyoqarash va tushunchalarni shakllantirish jarayonida namoyon bo'ladi. Talabalarning ijodiy faolligi shaxsning o'rganilayotgan hodisala-

rning mohiyatiga chuqur kirib borish va bilish faoliyatiga ijodiy yondashish qobiliyati bilan xarakterlanadi. Bilish mustaqilligi esa mustaqil fikrlash, yangi vaziyatlarda muammoni hal etish yo'llarini topish, bilimlarni egallash usullarini aniqlash va tanqidiy baholash kabi belgilar bilan ifodalanadi <sup>[5]</sup>.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogik akmeologiyaning markaziy tushunchalaridan biri o'qituvchining kasbiy mahorati tushunchasidir. U o'qituvchi shaxsining ajralmas xususiyati sifatida talqin qilinadi va o'qituvchining kasbiy faoliyatning bir nechta turlariga ega bo'lishini, shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonida professional pedagogik muammolarni samarali hal etishni ta'minlaydigan muhim psixologik fazilatlar majmuasining mavjudligini nazarda tutadi. O'quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalarni hal etishni talab etadi:

- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son<sup>1</sup> Qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanishlar hamda rivojlangan demokratik-huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning tashkiliy va ijtimoiy maqomini yuksaltirish;
- kadrlar tayyorlash tizimini hozirgi zamon talablari doirasida qayta qurish;
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali uslublarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- tizimni attestatsiya va akkreditatsiya qilishning yagona metodikasini joriy etish;
- normativ-huquqiy hamda moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash;
- tizimga byudjetdan tashqari investitsiyalarni jalb etish;
- kadrlar tayyorlash sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, 2004.
2. Yo'ldoshev J. Ta'lim yangilanish yo'lida. – Toshkent, 2000.
3. Abdurasulovna X. G. Z. Texnologiya fani mashg'ulotlarida akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash. – SHOKH Library, 2025, 1(10).
4. Qodirova M. Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. – Arxiv nauchnykh publikatsiy JSPI, 2020.
5. Abdurasulovna X. G. Z., Oribjonovna E. X. Ta'lim va tarbiya jarayoni orqali texnologiya darslarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi. – Jurnal, 59.

1 O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.